



“ALFIYYA” ASARINING YOZILISH SABABLARI VA UNING ARAB GRAMMATIKASIDAGI MAVQEYI

Ochilov A.D.

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida stajor-o'qituvchisi*

Tojiyeva Z.Z.

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida stajor-o'qituvchisi*

Tayanch soʻzlar: Ibn Molik, “Alfiyya”, mavqeʻ, “Al-Xulosa”, nazm, “Al-Kofiya”, grammatika.

Ключевые слова: Ибн Малик, «Альфия», положение, «Аль-Хулоса», поэзия, «Аль-Кофия», грамматика.

Key words: Ibn Malik, “Alfiyya”, position, “Al-Xulasa”, poetry, “Al-Kafiya”, grammar.

Ibn Molikning “Alfiyya” asari. Ibn Molikning asl ismi Muhammad ibn Abdulloh ibn Molik at-Toʻiy al-Jayyoniydir. Uning “Alfiyya” asari arab grammatikasidagi muhim manbalardan biri sanaladi. Ushbu asar sheʻriy uslubda yozilgan boʻlib, oʻzida nahv va sarf ilmining xulosalarini qisqa va tushunarli tarzda shakllantirgani bilan keng shuhrat topgan. Shu sabab oʻlaroq asar “Al-Xulosa” nomini ham olgan. Tarix mobaynida olimlar va adiblar tomonidan bu asarga katta eʻtibor berilgani, tasannolar aytilgani ham uning qadri qanchalar yuksak ekanini koʻrsatib bera oladi.

“Alfiyya” sheʻriy matni, aslida, Ibn Molikning boshqa kitobi - “Al-Kofiya Al-Shofiya” asarining qisqartirilgan shakli boʻlib, muallif unda ilmiy xulosalarini rajaz sheʻriy uslubida yoritgan. Shu bilan birga baʻzi oʻrinlarda ayrim masalalar borasida arab tili olimlarining ixtilofli fikrlarini keltirib, oʻzi qaysi fikrga suyanishini ham bayon qilib oʻtgan.

Ushbu kitob olimlar eʻtiboridan shu qadar chuqur oʻrin olganki, hatto arab tili grammatikasi doirasi yozilgan boshqa kitoblar til oʻrganuvchilari orasida deyarli eslanmay qoʻyilgan. Olimlar tomonidan “Alfiyya” asariga teng yoki



undanda manfaatliroq boshqa kitob yozganlik da'vosi ham kuzatilmagani ham asarning martabasini yana bir bor ko'rsatib beradi.

Yuqorida aytilganidek, "Alfiyya" asari arab tili o'quvchilari orasida keng shuhrat topgan bo'lib, boshqa kitoblarga qaraganda uni yodlashga, sharhlashga qaratilgan e'tibor ancha kuchli bo'lgan. Buning sababi - asar tilga oson so'zlar ila chiroyli shaklda ta'lif etilgani, nahv va sarf ilmlari unda qisqa va ma'noli holatda ifoda etilib, mavzulari qulay tartibda joylashtirilgani va har biriga daqiq yondashilganidir.

Shuningdek, Ibn Molikning boshqa asarlari ham bor. Ular orasida keng tarqalgan va mashhur bo'lganlari - "Al-Kofiya al-Shofiya", "Alfiyya" va "Tashil al-Fava'id" kitoblardir. Asarlarning har biri Ibn Molik ilmiy faoliyatining alohida bosqichini ifoda etadi.

"Al-Kofiya al-Shofiya"ni grammatika borasida ensiklopedik asar desa bo'ladi. Mazkur asar 2750 baytni o'z ichiga oladi. Ibn Molik keyinchalik bu asarni qisqartirib boshqa kitob - "Alfiyya"ni ta'lif etgan. "Alfiyya"da "Al-Kofiya al-Shofiya"da mavjud ixtiloflar, muammoli masalalar tushirib qoldirilgan. Shu sabab ham "Alfiyya" hozirgi kunga qadar nahv o'rganuvchilari uchun qulay manba bo'lib qolmoqda.

Asar nomlanishi va mavqeyi. "Alfiyya" asarining nomlanishiga kelsak, she'riy matnning baytlar soni mingtaga yetgani shunday nom olishida asosiy sabab sifatida ko'rsatiladi.

Aslida, "Alfiyya" atamasi ilk bor boshqa olim - Ibn Mu'tiy tomonidan qo'llanilgani manbaalarda qayd etilgan. U ham nahv ilmining olimlaridan biri bo'lib, to'liq ismi Zaynud-Din Abu al-Husayn Yahyo ibn Abdul-Mu'tiy ibn Abd an-Nur az-Zavaviy al-Mag'ribiy al-Hanafiydir. U 564 hijriy yilida tug'ilib, al-Qasim ibn Asakir kabi olimlar davrasida ta'lim olgan. Ibn Mu'tiyning asarlari soni ham bir nechtaga yetadi. Lekin "Alfiyya"si ular orasida alohida o'rin tutadi. Shuningdek, Ibn Mu'tiy adabiy va ilmiy nasrlar muallifi ham hisoblanadi. Ibn Mu'tiy "Alfiyya" kitobining oxirgi baytida ushbu asarining mukammalligi va undagi nazm jamiki shoirlar yozgan nazmlarning eng chiroylisi ekanini ham aytadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Ibn Molikning kitobi "Alfiyya" deb nomlanishida uning baytlari sonining ahamiyati katta. Ibn Molikning o'zi ushbu nomni asarning uchinchi baytida aytadi:

مقاصد النحو بها محوية وأستعين الله في ألفية

"Nahv ilmi maqsadlari ana shu kitobda mujassamdir,

"Alfiyya" borasida yordam so'raganim Allohdir".

Asarning ikkinchi nomi - “Al-Xulosa” esa nazmning oxirgi baytlaridan olingan. Ibn Molik aytadi:

أحصى من الكافية الخلاصة كما اقتضى عن بلا خصاصة

“Xulosa”ni (nahv borasida) kifoya deb bilaman,
U kitob biror kamchiliksiz mukammaldir”.

Kitobning arab grammatikasidagi mavqeyini olimlar Sibaveyhning “Kitob” asari darajasiga tenglashtiradi. Nahv ilmi borasida “Kitob” so’zi yolg’iz holda ishlatilsa, so’zsiz Sibaveyhning asari tushunilishi ma’lum va mashhur. Xuddi shu tarzda, agar “Alfiyya” so’zi biror qo’shimchasiz ishlatilsa, Ibn Molikning “Alfiyya”si nazarda tutililishini ta’kidlashgan.

“Alfiyya” asari nahv borasidagi o’zining ahamiyati, mukammalligini hozirga qadar yoqotmagan bo’lib, bugunga qadar o’quvchi-talabalar tomonidan keng murojaat qilinuvchi asosiy manbalar qatoriga kiradi. Asar o’zining mazmunan boy hamda tizimli tuzilgani bilan o’quvchilarni jalb etadi.

Ibn Molik asarda nahv ilmining murakkab masalalarini aniq va tushunarli tarzda bayon qila olgan. Bu esa asar soha mutaxassislarining diqqat markaziga tushishiga yana bir sababdir. Balki, tarix mobaynida “Alfiyya”ga olimlar ko’plab sharhlar, xoshiyalar yozishganining boisi ham shu.

Asar yozilish sabablari. Asarda Ibn Molikning ilmiy g’oyalarining mohiyati va eng muhim fikrlari jamlangan. “Alfiyya”da Ibn Molik o’zining avvalgi ba’zi xato qarashlaridan voz kechgan va to’g’ri deb topgan fikrlarini bayon etgan, shu sababli bu asar uning nahv masalalari borasida yakuniy qarashlari sifatida qaralishi mumkin.

Shuningdek, “Alfiyya” asarida fe’llarning tuslanishini batafsil yoritib berilmaydi, bu borada alohida bob ajratilmaydi ham. Bu holat Ibn Molikning boshqa kitobi - “Lamiyat al-Af’al” (Fe’llar Lamiyasi) asarini yozishiga turtki bo’lgan bo’lishi mumkin.

“Alfiyya”ning tuzilishiga ta’sir ko’rsatgan asosiy omillar quyidagilardir:

Ibn Mu’tiyning “Alfiyya” asaridan ta’sirlanish: Ibn Molik “Alfiyya”ning kirish qismida buni eslatib o’tgan:

و تقتضى رضا بغير سخط فائقة ألفية ابن معطي

“Mamnuniyat ila kitobdan rozi bo’lursan,
(asarda) Ibn Mu’tining “Alfiyya”sidan ortig’ini ko’rursan”.

Ushbu baytlardan ko’rinadiki, Ibn Molik Ibn Mu’tining “Alfiyya”sini o’qigan va undan ta’sirlangan. So’ng ana shunday uslubda kitob yozishni istagan.

“Kofiya” asarini qisqartirish: Bu Ibn Molikning “Al-Kofiya” nazm asarini yozgandan keyin uni juda uzun va ko’plab misollar va dalillar ila to’lib-toshgan deb hisoblagani va shu sababli uning qoida va ahkomlarini soddalashtirishga



zarurat sezgani. U “Alfiyya”ni yozishni boshlaganida, nahv qoidalari va ahkomlarini to‘liq yoritishga e’tibor qaratgan, bu haqda “Alfiyya”ning kirish qismida shunday deyilgan:

وَأَسْتَعِينُ اللَّهَ فِي أَلْفِيَّةٍ مَقَاصِدِ النَّحْوِ بِهَا مَحْوِيَةٌ
بِقَرَبِ الْأَقْصَى بِلَفْظِ مَوْجِزٍ وَتَبْسُطِ الْبَدَلِ بُوَعْدِ مَنْجِزٍ

“Alfiyya” borasida yordam so‘raganim Allohdir,

Nahv asoslari unda mujassamdir.

Qisqa so‘zlar ila uni bayon etarman,

U ila mo‘l-ko‘l foida olursan”.

3. Ibn Molik, she’riyatning turli janrlarida mohir ijodkor sifatida tanilgan, ayniqsa, uning she’riy asarlari nafaqat keng miqdorda, balki yuqori sifatda ifodalanganligi bilan ajralib turadi. As-Suyutiy Ibn Molikning she’riy mahorati haqida shunday deydi: “Uning uchun she’r yozish juda oson edi; rajaz, ta’vil, basit kabi she’riy shakllarni osonlik bilan yozar edi”. Nahv, tilshunoslik va qiroatlar bo‘yicha yozgan she’rlari o‘n mingdan ortiq baytlarni tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mualliflar jamoasi. “An-Na’im” arabcha-o‘zbekcha lug‘at. - Namangan: Namangan nashriyoti, 2018. - 805 b.
2. Ibn Kasir. Al-Bidoya van-Nihoya. – Bayrut: Darun-Nashr, 2012. – 4 jild.
3. Shamsiddin Zahabiy. Siyar a’alimun-Nubalo. – Qohira: Mu’assasatul-risola, 1982. – 22 jild.
4. Yahyo ibn Mu’ad az-Zavaviy. Ad-durrotu alfiyyatu fi ‘ilmil-a’robiyyati. – Bayrut: Darus-Salom, 2006. – 670 b.
5. Muhammad ibn Abdulloh ibn Molik. Alfiyya. – Damashq: Nahdetmisr, 2015. – 30 b.
6. Ahmad Aliy Al-Hanodiriy. Alfiyyatu ibn Malik tahlil va naqd. – Madina: Ja’miatu Ummul-Quro, 1989. – 260 b.
7. Muhammad ibn Ahmad al-G‘oziy. Sharhu Alfiyyatu ibn Molik bayna ‘Aqil va al-Xudriy. – Nabulus: Darul-‘ilm, 2005. – 465 b.
8. As-Suyutiy. Iqtiroh va usul an-nahv. – Damashq: Darul-Birutiy, 2006. – 591 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada arab tili grammatikasi olimlaridan biri Ibn Molikka tegishli “Alfiyya” asari - nomlanishi, boshqa kitoblar orasidagi mavqeyi va yozilish sababi haqida ma’lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье представлена информация о произведении «Альфия», принадлежащем одному из ученых арабской грамматики Ибн Малику - его название, положение среди других книг и причина написания.

SUMMARY

This article provides information about the work "Alfiyya" by one of the scholars of Arabic grammar, Ibn Malik - its title, its position among other books, and the reason for its writing.